

ALISHER NAVOIY HIKMATLARIDA INSONIYLIK G'OYALARI

Suxanberdiyeva Sitara Sanjar qizi

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika
universiteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: *Alisher Navoiy o'z hikmatlarida hamisha xalqni ezgulik va yaxshilikka chorlab yashagan. Uning hikmatlarida insoniylik, oliyjanoblik, saxovat va himmat g'oyalari ufurib turadi. Mana necha-necha asrlardan Hazrat Navoiyning hikmatlari o'z qadr-qimmatini yo'qotmay kelmoqda. Adabiyotni bir bog' desak, Navoiy unda eng muattar iforni ijod etgan ulug' shoirdir.*

Kalit so'zlar: *hikmatlar, saxovat, himmat, insoniylik, ezgulik.*

Annotation: *Alisher Navoi always called the people to virtue and goodness in his wisdom. The ideas of humanity, nobility, generosity and dedication are blowing in his wisdom. For several centuries, Hazrat Navoi's wisdom has not lost its value. If we call literature as a garden, Navoi is a great poet who created the most beautiful poetry in it.*

Key words: *wisdom, generosity, dedication, humanity, goodness.*

Аннотация: *Алишер Навои своей мудростью всегда призывал народ к добродетели и добру. В его мудрости веют идеи человечности, благородства, щедрости и самоотверженности. На протяжении нескольких столетий мудрость Хазрата Навои не утратила своей ценности. Если назвать литературу садом, то Навои – великий поэт, создавший в нем прекраснейшую поэзию.*

Ключевые слова: *мудрость, великодушие, самоотверженность, человечность, добро.*

Buyuk mutafakkir, she'riyat mulkining sultoni Navoiy ijodi bamisoli cheksiz bir ummon, ushbu ummonga qancha chuqurroq sho'ng'isangiz shuncha ko'p inju terasiz. Shu sababdan ham Navoiy asarlari mana 6 asrdan buyon o'z qiymatini, betakrorligini yo'qotmagan. Navoiy asarlarini qanchalik ko'p o'qigan sari, o'rgangan sari, shuncha ko'p hayratga tushadi kishi. Shuni quvonch bilan aytish joizki, Alisher Navoiyning boy va serqirra ijodi faqat o'zbek adabiyotidagina emas, balki jahon adabiyotida ham salmoqli o'ringa ega. Navoiy lirik, epik va falsafiy asarlari bilan XV asr adabiyotida chuqur iz qoldirdi.

Mir Alisher Navoiy insonlarni to'g'ri so'zlashga, o'zgalarga nisbatan samimiy va sofdil bo'lishga undagan. Jumladan uning quyidagi hikmatli so'zida xuddi shu kabi fikrlar ilgari suriladi:

Chin so'z — mo'tabar;

Yaxshi so'z qisqa — muxtasar.

Bu misralarda so'zni qisqa qilishga va haqiqatni so'zlashga chorlov mavjud. Yaxshi so'z insonlarning ko'rki, jamolidir. Kishi kimning qanday insonligi haqida bilishni istasa, uning so'zlayotgan so'ziga boqish kifoyadir.

Oz-oz o'rganib dono bo'lur,
Qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur

Navoiy mazkur misralarda ilm olishga bo'lgan e'tibor ilgari suriladi. Garchi ilm oz bo'lsa-da, uning qatra-qatra yig'ilib kengayib borishi haqida so'z boradi. Kishi ilm olishda qunt qilishi kerakligi haqidagi chaqiriq ham mavjudki, uni oz-ozdan bo'lsa ham o'rganishdan to'xtamaslik joizdir. Ilm insonni yuksaltiruvchi, unga hayotning asl ma'no va mohiyatini anglashga yordam beruvchi mash'aladir.

Haq yo'linda kim senga bir harf o'qitmish ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado, oning haqin yuz ganj ila.

Darhaqiqat, o'zining ko'z nuri, qalb qo'ri, butun borlig'ini yosh avlod tarbiyasiga baxsh etadigan ustozlarning mehnati, jasorati har qanday yuksak baholarga munosibdir. Xuddi shu singari inson uning haqqini hech qanday boylik bilan ado eta olmaydi. Bir harfning bahosi shu qadar ulug'ligi tilga olingan ekan, umrini ta'limga bag'ishlagan insonlarning butun umrlik zahmatini ado etishning imkoni bo'lmasa kerak.

Xaloyiqqa ko'rma qilib benavo,
O'zingga ravo ko'rmaganni ravo.

Bu himat orqali shuni anglash mumkinki, inson o'ziga nimani ravo ko'rsa, o'zgalarga ham shu ravo ko'rmog'i lozim. Zotan, o'ziga yaxshilikni istab, atrofdagi insoniyatga yomonlikni ravo ko'rishdan qaytariladi. Har kimga ham inson o'ziga istagandek yaxshilikni istashi kishining pok niyatli va oliyjanob inson ekanligidan dalolat beradi. Albatta, ezigulik va yaxshilik insonning ko'rkidir.

Bordur inson zotida oncha sharaf, –
Kim yamon axloqin etsa bartaraf.

Hazrat Alisher Navoiy hamisha insonlarni yaxshi xulqli bo'lishga undabgina qolmay, bu ruhni o'z hikmatlariga ham jo etgan. Kishi o'zining yomon axloqlaridan forig' bo'lishi, o'zi uchun naqadar baxt va yaxshi ish ekanligi haqida bayon etiladi. Umuman olganda, har kim o'zining yomon odatlaridan xalos bo'lishga harakat qilishi va bunga erishishi lozim. Insonning axloqi uning jamiyatdagi o'rni va mavqeyini belgilashga ham yordam beradi. Axloq insonga har jihatdan barkamollik va ulug'vor viqor bag'ishlaydi.

Ko'p demak birla bo'lmag'il nodon,
Ko'p yemak birla bo'lmag'il hayvon.

Mir Alisher Navoiy hamisha so'zni tejashga va uni tejash barobarida har so'zni so'zlayvermaslikka undaydi. Ko'p demak bilan kishi nodonga aylanib qolishi haqida so'z boradi. Kishi Ko'p yemak bilan esa hayvon yanglig' holatga kelishi mumkin. Shuning uchun, har kim so'zni bilib ishlatishi va ko'p taomlanishdan yiroq bo'lishi lozim. Zero, yaxshi so'z muxtasardir.

Shuni quvonch bilan aytish joizki, Alisher Navoiyning boy va serqirra ijodi faqat o'zbek adabiyotidagina emas, balki jahon adabiyotida ham salmoqli o'ringa ega. Barcha daho san'atkorlar singari Alisher Navoiy ham o'zining nomi va yaratgan asarlari osha yashab qolishiga ishongan edi. "Umidim uldurki va hayolimga andoq kelurki, so'zim martabasi avjdan quyi enmagay va yozgan asarlarimning tantanasi a'lo darajadan o'zga yerni yoqtirmagay", deb yozgan edi ulug' shoir. Bu bashoratomuz so'zlar ijobat bo'ldi. Endilikda shoir so'zlari dunyo bo'ylab o'zining yuksak parvozini davom ettirmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://askinfo.uz/1947/alisher-navoiy-haqida-insho-rejasi-bilan>
2. <https://antimon.gov.uz/alisher-navoiy-soz-mulking-sultoni/>
3. <https://iqtidor.uz/uz/main/article/245>
4. [https://t.me/Alisher Navoiy ijodi](https://t.me/Alisher_Navoiy_ijodi)